

TDSHI Jahon siyosati, tarix va falsafa fakulteti (MOXT yo'nalishida)
Tarixshunoslik, manbashuboslik va tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi II
bosqich magistranti Jo'rayeva Odina

Nikoh to'ylarida urf bo'lgan norasmiy marosimlar

Ma'lumki, to'y marosimlari uzviy bir bo'lagini tashkil etuvchi oila va nikoh kabi ijtimoiy emas, balki tarixiy hodisa hamdir. Ular jamiyat rivojlana borgani sayin o'zida ko'p asrli an'analarni jamul-jam qilib, jamiyatda yuzaga kelgan yangi shakl va qadriyatlarni tanlagan holda o'zgaradi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbeklarining an'anaviy to'y marosimlari kelib chiqishi, turli tarixiy davrlar bilan bog'lik, bo'lgan ijtimoiy va diniy urf-odatlar, hamda marosimlarning sertarmoq; tizimini tashkil etadi. Xalqning tarixiy xotirasi qasddan faromush etilgan, tarix fani ongli ravishda soxtalashtirilgan sovet totalitar tizmi qaror topishi bilan milliy oila va nikoh tadrijiyligi hamda xususiyatlari ilmiy tadqiqot doirasidan tashqarida bo'lib ketdi¹. Bugungi kunga kelib zarafshon vohasida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi jumladan nikoh to'y marosimlarida ham bir ancha islohatlar olib borildi. O'tgan asrlar davomida marosimlarda yuzdan oshiq o'zgarishlar tuzatishlar amalga oshirildi. Bularga birma- bir to'xtaladigan bo'lsak: Birinchilardan bo'lib, nikoh marosimigacha bo'lgan "vecher" deb nomlanuvchi bazm butunlay olib tashlandi. Qalin puli ya'ni sud haqi nisbatan kamaytirildi. To'y uchun qilinadigan xarajatlar miqdori qisqartirildi. Yana bir qator urf odatlar olib tashlandi. Bunga asosiy sabab to'ylarning kamtarona va isrofgarchilikdan holi darajada olib borilishi uchun qilingan say harakatlardir. Zarafshon vahasining janubiy qismlarida yan;ni Navoiy va Buxoro tomonlarida qadimdan saqlanib keladigan bir qancha urf odatlar bor albatta bular bugungi

¹ Дониёров А. Ўзбекистон этнографияси тарихидан лавҳалар. (XX асрнинг 20–80- йиллари). – Т., 2003 Б. 245

kunda ham o'z o'rnini saqlab qolgan XX asr boshlarida ko'proq to'y marosimlari uy sharoitida olib borilgan bo'lsa bugungi kunga kelib to'yxonalar vujudga keldi.

To'yda temir stol stullar qo'yilgan bo'lsa, endilikda bu zamonaviy mebellarga almashtirildi. Kelling sepi ham ancha narsalar bilan boyitildi. O'tgan asrlarda faqat keling o'zini va unga qo'shib bir ikkita kiyimlarini berib yuborishgan bo'lsa hozirgi kunda esa kiyimidan ortib mebeligacha va hatto idish tavoqlarigacha qilishmoqda. Bu albatda qaysidir ma'noda yaxshi, ammo bunday o'zgarishlar oqibatida kelin tarafning uyidagilarga ortiqcha xarajat paydo bo'lmoqda.

Butun o'zbekiston bo'ylab to'y marosimlaridagi o'zgarishlarga to'xtaladigan bo'lsak:

“Kelin navkar” deb ataluvchi odat paydo bo'ldi bu ko'proq Toshkent vohasida va shunga yaqin joyda kuzatilmoqda unga ko'ra keling o'nga yaqin dugonalari bir xil libosda va qo'llariga kelin dugonasi ramzi bo'lgan tasma taqin olishadi.

Bu, albatta Yevropaning ta'siri asosida kirib kelayotgan norasmiy odat hisoblanadi, Bundan tashqari bu holni kuyov navkarlarida ham kuzatishimiz mumkin.

“Love story” eng ommolashib kelayotgan norasmiy odatlardan biri hisoblanadi.

Bunda ikki yoshning sevgi qissalari va ularning sevgi tarixlariga qisqacha video rolik orqali sharx berib o'tiladi².

To'y marosimlari xususan nikoh to'yi xalq, turmushining, ayniqsa ma'naviy madaniyatimizning ko'pgina jihatlarini o'zida namoyon etadi. Shu sababli xalq, turmush madaniyatining mazkur sohasini ilmiy asosda har tomonlama xolisona o'rganmay turib, urf-odatlarning o'tmishdagi va hozirgi kundagi ahamiyatini ilmiy- etnografik nuqtai nazardan tahlil qilish qiyin³.

Muammoni teran va atroflicha tadqiq, etish nafaqt ilmiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega. Negaki, milliy qadryatlari ham

lakatimiz mustakdligini mustahdamlaydigan ma'naviy asoslardan biridir, Zero, milliyligimiz bizning tariximizni, madaniyatimizni, an'analарimizni boy ma'naviyatimizni jiddiy urganish va ularni hamjamiyati e'tiboriga yetkazish

² Dala tadqiqotlar Buxoro viloyati olot tumani chandir qishlog'I 2017 yil

³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, Xalq, so'zi. 1998 yil 28 iyul

natijasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 28 oktyabrdagi "Oilaviy tantanalar, to'y hashamlar, maraka va marosimlar, xotira hashamlariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish mazkur farmondan kelib chiqib, xalqimiz to'yi va marosimlarida maqbul an'analardan hozirgi to'ylarda unumli foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi,

O'zbekistonda oilalarning shakllanishi va ravnaqi an'anaviy urf-odatlarining tobora takomillashuvi ijtimoiy fanlar uchun maxsus tadbir manbai hisoblanadi, zero bu mavzu mamlakatimizda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ana shu xususiyatlarni nazariy tahlil etish borasida falsafa, huquqshunoslik fanlari anchagina tajriba ortirgan bo'lsada, lekin tarixiy-etnografik yo'sinda hanuz o'rganilmagan jihatlari talaygina.

Oila-nikoh munosabatlari, serfarzand aholi asosiy qismining qishloq, joylarda istiqomat qilishi o'zbek-nikoh to'ylarining o'ziga xosligini belgilaydi, an'analarni saqdab avloddan-avlodga o'tishga yordamlashadi.

Xalqimiz o'zining uzoq, tarixi davomida qanchadan-kancha urf-odat va an'analarga, hayot tarzi tufayli vujudga kelgan marosimlarga ega edi. To'g'ri bularni mufassal tahlil qilish mavzumiz doirasiga kirmaydi. Milliy an'ana va urf-odatlar asrlar osha yangicha mazmun kasb etadi. Uz navbatida zamona va davr talabiga hos an'anaviy urf-odatlar zamonlar osha yashab kelgusi avloddarga yetib boradi. Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek "Aslida bu teran milliy qadriyatlarni, odamlarning o'ziga hos hususiyatlari va an'analarni saqdab qolish yo'lidagi tabiiy intilish ijtimoiy, ma'naviy, va tarixiy sub'ekti bo'lgan millatni saqlab qolishga qaratilgan"dir⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., 1998.
2. Дониёров А. Ўзбекистон этнографияси тарихидан лавҳалар. (XX

⁴ Саотова С.А. Юқори Зарафшон воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари диссертация Т.1999 36-47

асрнинг 20–80- йиллари). – Т., 2003 Б. 245

3. Саотова С.А. Юқори Зарафшон воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари диссертация Т. 1999 Б.140
4. Шониязов. К.Ш. К этнической истории узбекского народа. Т. 1974 Б.318.
5. Dala tadqiqotlar Buxoro viloyati olot tumani chandir qishlog'I 2017 yil